

ZIGMUND FREYD HAYOTI VA UNING NAZARIYASI TUG'ILISHI

Tayanch iboralar: *psixoanaliz, ong osti, id, ego, superego, Edip kompleksi, psixoseksual rivojlanish, transferensiya, o'ziga ko'chirish, repressiya, libido, defensiv mexanizmlar, tush ko'rish tahlili, kattalikka qaytish, inkor, oraliq zona, shaxsiyat strukturasi, nevroz, fiksatsiya*

*Ko'zlariningizni yuming,
o'z qalbingizning tubiga nazar
soling, avvalo o'zingizni
anglashni o'rganing.
Zigmind Freyd*

Shaxsni o'rganish bo'yicha ilmiy yondashuvlarning eng dastlabkisi bu psixoanaliz maktabi bo'lib, uni Sigmund Freyd XIX asrning oxirlarida yaratgan. Freyd psixoanaliz nazariyasida ongsiz kuchlarga, jinsiy va tajovuzkorlik kabi biologik asoslarga hamda bolalikdagi tabiiy ziddiyatlarga ko'proq e'tibor qaratgan. Ular bizning shaxsimizni shakllantiruvchi va boshqaruvchi asosiy omillar deb hisoblangan.

Shaxs nazariyasi rivojiga Sigmund Freyddan ko'ra ko'proq ta'sir qilgan kishi deyarli yo'q desak mubolag'a bo'lmaydi. Uning psixoanaliz ta'limoti shaxs bo'yicha birinchi rasmiy nazariya hisoblanib, hanuzgacha eng mashhur nazariya hisoblanadi. Freydning ishlari nafaqat psixologiya va psixiatriyada shaxs haqidagi qarashlarga, balki inson tabiatini umumiyl tushunishimizga ham katta ta'sir ko'rsatgan. Sivilizatsiya tarixida unchalik keng va chuqur ta'sir ko'rsatgan g'oyalar kam uchraydi. Freyd 1939-yilda vafot etganida, "Nyu-York Tayms" uni "zamonamizda bizni beparvolikdan uyg'ota olgan eng kuchli shaxs" deb ta'riflab, hurmat izhor qilgan (Bakalar, 2011, D7-bet). Freyddan keyin taklif qilingan ko'plab shaxs nazariyalari uning asosiy ishlariga asoslangan yoki ularni kengaytirgan. Boshqalari esa Freydning psixoanaliziga qarshi chiqish orqali o'z yo'nalishini topgan. Shaxsni va uning rivojlanishini tushunish va unni ta'riflash, ta'sir ko'rsatishda Freydning tizimini bilish muhimdir.

Freyding hayoti

Sigmund Freyd 1856-yilda Moraviyaning Freiberg shahrida (hozirgi Chexiya Respublikasidagi Pribor) tug‘ilgan. Uning otasi unchalik muvaffaqiyatli bo‘lmagan bir jun savdogari edi. Otasi Moraviyadagi savdosida omadi chopmaganda, oilani avval Germaniyaning Leyptsig shahriga, keyin esa Freyd to‘rt yoshga kirganida Vena shahriga ko‘chirib olib ketdi. Vena shahrida Freyd qariyb 80 yil yashadi.

Freyd tug‘ilganida uning otasi 40 yoshda, onasi esa (uning uchinchi xotini) 20 yoshda edi. Otasi qattiqqo‘l, talabchan bo‘lgan. Freyd o‘zining kundaliklarida o‘smirlik davrida otasiga nisbatan ko‘plab nafrat va g‘azab hislarini eslashini aytib o‘tgan. U ikki yoshidayoq o‘zini otasidan ustunlikka xohishni his qilgan ekan. Freydning onasi juda jozibali bo‘lib, birinchi o‘g‘li Sigmundga g’amxo‘r va mehribon hamda uning himoyachisi edi. Freyd unga kuchli, hattoki jinsiy tuyg‘ular bilan bog‘liq bo‘lgan yaqinlik his qilgan. Bu munosabat uning keyinchalik yaratgan “Edip kompleksi” degan konsepsiysi yaratilishiga asos bo‘lib xizmat qilgan. Freydning shaxs xususiyatlari ko‘p jihatdan uning bolalikda boshidan o’tkazgan tajribalariga asoslanib shakllangan.

Onasi yosh Sigmund bilan faxrlanar va uning bir kun kelib buyuk inson bo‘lishiga ishongan. Freydda umri davomida o‘ziga bo‘lgan ishonch, katta muvaffaqiyatga erishishga bo‘lgan ishtiyoqi va mashhurlikka intilish hissi kuchli bo‘lgan. Onasining doimiy e’tibor va qo‘llab-quvvatlashi ta’sirida u shunday yozgan: “Onasining eng yaqin suyuklisi bo‘lgan erkak umr bo‘yi g‘oliblik tuyg‘usini va muvaffaqiyatga bo‘lgan ishonchini saqlab qoladi, va bu ko‘pincha haqiqiy muvaffaqiyatga olib keladi.” Otasining sakkiz nafar farzandi bo‘lib, ulardan ikkitasi o‘z farzandlariga ega edi. Freyd oiladagi boshqa bolalarga doim dushmanona kayfiyatda bo‘lib va onasining e’tibori uchun raqib bo‘lgan har bir yangi bolaning tug‘ilishidan g‘azablanar edi.

U yoshligidan o‘ta zukko bo‘lib, ota-onasi uning aqliy rivojlanishini qo‘llab quvvatlagan. Hattoki Freyd dars mashg‘ulotlari bilan shug‘ullangan payt, singillari pianino chalishlariga ruxsat berilmagan. Chunki bu Freydning o‘qishiga xalal berishi mumkin edi. Unga alohida xona ajratilgan bo‘lib, o‘qishdan chalg‘imaslik uchun u ovqatini ham o‘sha yerda alohida yejishiga imkon yaratilgan edi. Xonadondagi yagona moy chiroq unga berilgan bo‘lib, qolgan oila a’zolari esa sham yoqishardi.

Freyd o‘rta maktabga bir yil erta chiqqan va sinfdagi yetakchi o‘quvchilar qatorida bo‘lgan. U nemis va ibroniy tillarini yaxshi bilgan va maktabda lotin, yunon, fransuz, ingliz tillarini o‘rganib, o‘zi mustaqil italiyan va ispan tillarini o‘rgangan. Yoshligida ingliz tilida Shekspir asarlarini mutolaa qilishni yoqtirardi. Freyd ko‘plab qiziqishlarga ega, jumladan, harbiy tarixga bo‘lgan qiziqishi juda yuqori edi. U siyosatga qiziqqan va shu orqali shon-shuhratga erishish orzusi bor edi. Biroq Venada yahudiylar egallashi mumkin bo‘lgan kasbiy sohalar juda cheklanganligi bois (yahudiylar hokimyatdan chetda tutilgan), u tibbiyot yo‘lini tanladi. U shifokor bo‘lishni xohlamagan, balki tibbiyot orqali ilmiy izlanish bilan shug‘ullanish va shu orqali u doimiy ravishda intilgan shon-shuhratni qo‘lga kiritishni maqsad qilgan.

Tibbiyot fakultetida o‘qiyotganida Freyd kokainga qiziqa boshladi, o‘sha paytda bu modda noqonuniy emas edi. U o‘zi kokaindan istemol qilgan va unashirilgan qizi, singillari hamda do‘stilarini ham uni sinab ko‘rishga undagan. Freyd kokainni "mo‘jizaviy dori" deb atagan va uning tushkunlikni hamda surunkali hazm qilish muammolarini yechishda da’vo deb bilgan. U "yomon kunlarni yaxshi qilish va yaxshi kunlarni yanada yaxshi qilish" uchun kokain iste’mol qilgan. 1884-yilda kokainning ijobiy ta’sirlar haqida maqola chop etgan, bu maqola uni mashhur qilishiga umid bog’lagan. Ammo bu maqola keyinchalik Yevropa va Qo‘shma Shtatlarni qamrab olgan kokain epidemiyasiga sabab bo‘lgan va bu holat 1920-yillarga qadar davom etgan. Freyd keyinchalik kokain epidemiyasiga sababchi bo‘lganligi uchun keskin tanqidlarga uchragan.

Bu tanqid unga mashhurlik emas, aksincha, nomiga dog’ olib kelgan va u umrining oxirigacha kokainga oid barcha yozuvlarni o‘z bibliografiyasidan olib tashlashga harakat qilgan. Biroq, u kokaindan o‘rta yoshlariga qadar istemol qilishda davom etgan. Aftidan, u 1884-yildan 1896-yilgacha kokaindan foydalangan va keyinchalik vinoga o‘tgan. 1899-yil iyun oyida u do‘stiga “Men asta-sekin vinoga o‘rganyapman; u eski do‘stimdek tuyuladi. Iyul oyida undan ko‘p ichishni rejalashtiryapman,” deb yozgan.

Freyd ilmiy izlanishlar orqali o‘z orzulariga yerishish niyatida edi, ammo uning ustozlaridan biri unga professorga aylanish va moliyaviy mustaqillikka erishish uchun uzoq yillar kerak bo‘lishini aytgach, u bu

rejadan voz kechishga majbur bo‘ldi. U mustaqil daromadga ega emasligi sababli (u paytlari ilmiy izlanuvchilik uchun pul to’lanmas edi) xususiy tibbiy klinikada ishlashdan boshqa chora topa olmaydi. Uning Marfa Bernays bilan unashirilgan davri to‘rt yillab davom etishi hamda oila va to‘y xarajatlari uchun mablag’ topa olmaganligi ham unga tezroq daromad topish payiga tushishiga sabab bo‘lgan. 1881-yilda Freyd klinik nevrolog sifatida o‘z amaliyotini boshladi va ruhiy muammolarga duch kelgan bemorlarning shaxs xususiyatlarini o‘rganishga kirishdi.

Freyd bir necha oy Parijda gipnozdan foydalanishda mutaxasis bo‘lgan psixiatr Jan Martin Sharkot bilan ishladi. Sharkot ruhiy muammolar jinsiy sabablar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkinligini aytganda, muammoning bu jihatni uning e’tiborini ko’proq jalb qildi. Sharko bir bemorning muammoji jinsiy muammolar sababli kelib chiqqanligi haqida aytganda, bu Freydga kuchli ta’sir qildi.

Vena shahriga qaytgach, Freyd yana ruhiy muammolarning jinsiy asoslari haqidagi o‘z izlanishlariga yana ko’proq urg’u bera boshladi. Bir kuni uning bir hamkasbi o‘z bemorining xavotirlarini o’sha ayol erining bepushtligi bilan bog‘lagan. Bemor o‘z eri bilan 18 yil davomida jinsiy munosabatda bo‘lmagan edi. Bu voqealar va u ayolning shaxsiy jinsiy ziddiyatlari Freydni ruhiy buzilishlar jinsiy sababga ega bo‘lishi mumkinligi haqida o‘ylashga yanada ko’p unday boshladi.

Klinik amaliyotda bir necha yil ishlagach, Freyd jinsiy muammolar barcha nevrozlarning asosiy sababi ekanligiga tobora ko‘proq ishonch hosil qildi. U ayol bemorlarining ko‘pchiligi bolalikda jinsiy travmalarni boshdan kechirgani haqida gapirib berishganini iddao qildi. Ularning aytishi bo‘yicha, bu zo’ravonliklar odatda katta erkak qarindoshlar, asosan ota tomonidan amalga oshirilgan. Freydning nazarida bu ilk jinsiy travmalar kattalikda nevrotik xatti-harakatlarning sababchisi edi.

Bir yil o‘tgach esa, Freyd o‘z fikrini o‘zgartirib, bemorlarining aksariyati unga haqiqatda sodir bo‘lmagan fantaziyalarini gapirishayotganini payqaganligini aytadi. Boshida bu uning nazariyasiga katta zarba bo‘ldi, chunki bu uning nazariyasining asosiy poydevorini zaiflashtirishi mumkin edi. Biroq, Freyd bemorlarining ushbu fantaziyalarga ishonishlarini va ularning bu soxta voqealarni haqiqat deb qabul qilishlarini tushuntirdi. Chunki fantaziyalar ham to’liq jinsiy xarakterda edi. 1898-yilda

u nevrozlarning asosam jinsiy konfliktlar asosida shakllashini yana bir marta o'z maqolalarida chop etgan.

Shuni ta'kidlash kerakki, Freyd hech qachon o'z bemorlarining bolalikdagi jinsiy zo'ravonlik haqidagi barcha hikoyalari fantaziya ekanligini aytmagan; u faqat ularning har doim ham haqiqat ekaniga shubha bilan qaragan. U shunchaki bolalarga qarshi bunday zo'ravonlik ishlatalish o'sha davr uchun ishonilishi, tan olinishi juda qiyin ekanligi uchun shunday fikrlarni yozganligi va o'z fikrining keskinligini pasaytirish maqsad qilinganligi haqida ham taxminlar mavjud. Chunki shusiz ham kokoin bilan bog'liq omadsizliklar Freydning yana bir shunga o'xshash ommaviy tanqidlar uni shashtini ozgina pasaytirgan bo'lishi mumkin.

Bugungi kunda esa, aksincha, biz bilamizki, bolalikdagi jinsiy zo'ravonlik o'ylanganimizdan ko'ra ko'proq uchraydi, bu esa Freydning dastlabki fikri to'g'ri bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi. Freyd haqiqatni atayin yashirib, bemorlar haqiqatdan bu voqealarni boshlaridan o'tkazishganmi yoki bemorlari haqiqatan ham fantaziyalarni tasvirlab ularga ishonib qolganmi yoki, nomalum. Bugungi kundagi yangiliklardan ham ko'rinish turibdiki, Freydning bemorlari bolalikdagi tajribalari haqida ko'proq haqiqatni gapirgan bo'lish ehtimoli yuqori.

Freyd bolalikdagi jinsiy zo'ravonlik haqidagi nazariyasini fantaziya deb e'lon qilganidan 10 yil o'tgach, u bunday travmatik hodisalar ko'pincha haqiqiy bo'lishini tan oldi. Bir necha yildan so'ng yana bir do'stiga "bir necha haqiqiy incest¹ holatlarini tahlil qilganini va davolaganini" aytди.

Freydning izdoshlaridan biri 1930-yildagi bolalar jinsiy zo'ravonligi haqiqatda Freydning matbuotda chop etishni hohlagan sonidan ham ko'p yuz bergenligini, Freyd esa bu sonlarni cheklab haqiqiy manzarani ko'rsatmaslikka uringanligini yozib qoldirgan. Yana taxmin ham borki, agar Freyd haqiqatni butunlay ko'rsatganida, demak hamma otalarni (balki uning o'zi ham) o'z farzandlarining zo'ravoni ekanligi gumonini keltirib chiqarardi. (Krüll, 1986)

Inson emotsiyonal hayotida jinsiy munosabatlarning ahamiyatiga katta e'tibor qaratgan Freydning o'z shaxsiy hayotida ko'plab jinsiy ziddiyatlar mavjud bo'lganligini ko'rishimiz mumkin. U yoshlik yillarida (hatto (bu

¹ Incest — bu qarindoshlar o'rtasidagi jinsiy munosabatlarni anglatadi, odatda yaqin qarindoshlar (ota-onalar va farzandlar, aka-uka va opa-singillar) o'rtasidagi jinsiy aloqaga kirishishni bildiradi.

g'arb uchun normal hisoblanadi) 30 yoshida uylanganiga qadar) ham boshqa ayollar bilan hech qanday aloqada bo'lмаган. U ayollar bilan munosabatda uyatchang va qo'rquv sezardi. Freydning jinsiy munosabatlarga munosabati salbiy edi. U so'g'lom, normal insonlar uchun ham jinsiy munosabatlarning xavfli ekanligi haqida yozgan va insonlarni "jinsiy aloqaga bo'lган umumiylay yozgan va insonlarni "jinsiy aloqaga bo'lган umumiylay hayvoniylay ehtiyojdani yuqori turishga" chaqirgan. Uning uchun jinsiy munosabat insoniyatni ham ruhan, ham jismoniy jihatdan kamolotiga to'siq ekanligiga ishongan. Aftidan, u 41 yoshida o'z jinsiy hayotini yakunlagan va do'stiga shunday yozgan: "men kabi odamga insonga jinsiy lazzat endi kerak emas" (Freyd, 1954, 227-bet). U turmushida ba'zan impotentlik² davrini boshidan o'tkazgan va prezervativlar hamda o'sha davrda keng qo'llanilgan jinsiy aloqani to'xtatish (coitus interruptus)³ usulidan nafratlanganligi uchun ba'zan jinsiy aloqadan voz kechishni afzal ko'rgan.

Freyd jinsiy hayotining tugatilishi uchun rafiqasi Marfani ayblagan va ko'p yillar davomida xotini uni jinsiy aloqani tashlashga majbur qilganligi va unga nisbatan nafrat hislariga to'la tushlar ko'rgan. "U rafiqasidan g'azablangan, chunki u tez-tez homilador bo'lib qolardi, ustiga ustak homiladorlik paytida ko'pincha kasal bo'lib, u davr uning uchun o'g'ir kechar edi. Shuning uchun u ko'proq jinsiy yaqinlikka qo'rquv bilan qarab va tug'ish maqsadidan boshqa har jinsiy faoliyatga hohish bildirmas edi" (Elms, 1994, 45-bet). Shunday qilib, Freydning impotentlik davrlari ham Marfaning yana homilador bo'lib qolishi ehtimolidan qo'rqishiga bog'liq bo'lган bo'lishi mumkin.

Xuddi Freyd bemorlarining nevroz holatlarini ularning jinsiy munosabatlardagi konfliktlarga bog'lagani kabi, uning o'z jinsiy munosabatlarga bo'g'liq frustratsiya⁴lari va ziddiyatlari ham nevroz shaklida namoyon bo'la boshladi. 40 yoshida u og'ir nevrotik epizod boshdan kechirgan, bu haqda u "ongli tushunib bo'lmaydigan g'alati ruhiy holatlar – xira fikrlar va yashirin shubhalar, ularning orasida faqat ba'zan yorug'lik nurlari paydo bo'lar edi... men o'zim bilan nima bo'layotganini hali ham bilmayman," deb yozgan (Freyd, 1954, 210–212-betlar). Bundan

² Impotentlik (iktidorsizlik) — erkakning jinsiy aloqada erekсия hosil qila olmasligi yoki erekсиyani yetarlichay davom ettira olmasligi holati.

³ Coitus interruptus, bu jinsiy aloqaning tugashidan oldin erkakning jinsiy organini ayolning jinsiy organidan chiqarib olish orqali homiladorlikdan saqlanish usuli.

⁴ Frustratsiya — bu insonning o'z maqsadlari yoki ehtiyojlari qondirishda qiyinchiliklarga duch kelishi natijasida yuzaga keladigan ruhiy tushkunlik yoki norozilik holati.

tashqari, u turli xil jismoniy simptomlar, jumladan migren⁵, siylik yo'llari muammolari va qabziyatdan aziyat chekardi. U o'limdan qo'rqlik, yuragi haqida tashvishlanardi va safarlardan hamda ochiq joylardan xavfsirardi. Bu davr uning uchun qiyinchilik davri edi.

Freyd o'z holatini xavotirli nevroz va nevrosteniya (kuchsizlik, xavotir va hazm qilish hamda qon aylanishidagi buzilishlar bilan xarakterlanadigan nevrotik holat) deb baholaydi. U ikkala buzilishning sababini ham jinsiy muammolar bilan bog'ladi. O'z qo'lyozmalarida u erkaklardagi nevrosteniya masturbatsiya natijasida kelib chiqadi, deb, xavotir nevrozi esa coitus interruptus va jinsiy munosabatdan cheklanish amaliyotlaridan kelib chiqadi, deb ta'riflagan. Shu tariqa u o'zida his qilgan psixik alomatlarini ilmiy nomlagan va nazariyasida uning shaxsiy hayoti chuqur o'rin egallagan edi. Chunki u shu nazariya yordamida o'z muammolarini tushunishga va yechishga harakat qilgan... Freydning nevroz haqidagi nazariyasi uning o'z boshidan kechirgan nevrotik alomatlarga asoslanadi (Krüll, 1986, 14, 20-betlar).

Freydning o'zining jinsiy ziddiyatlariga qaramay (balki shuning oqibatida), u go'zal ayollarga doimo intilgan. Uning do'stlaridan biri Freydning talabalari orasida juda ko'p jozibali ayollar borligini va bu tasodifga o'xshamasligini qayd etgan (Roazen, 1993, 138-bet).

Freyd o'z tushlarini o'rganish orqali o'ziga psichoanalitik terapiyalar o'tkazgan va buni hayotining oxirigacha davom ettirgan. U o'zini muolaja qilishni boshlaganida, do'stiga yozgan maktubida "Men eng ko'p shug'ullanayotgan bemor o'zimman," deb ta'kidlagan edi (Kandel, 2012, 63-betdan keltirilgan). Aynan hayotining shu davrida Freyd o'z shaxs nazariyasini ishlab chiqishda ijodiy ilhomlarga ko'milgan edi. Tushlarini tahlil qilish orqali u otasiga nisbatan qanchalik darg'azabligini birinchi marta tushunib yetgan. U bolaligida onasiga bo'lgan jinsiy intilishlarini eslab, katta qiziga nisbatan jinsiy istak holati haqida tush ko'rgan. Shu tariqa, o'zining nevrotik ziddiyatlari va bolalikdagi tajribalariga asoslanib, o'z nazariyasini shakllantirgan. Freydga ko'ra, "Eng muhim bemorim o'zim bo'lganman" (Gay, 1988, 96-betdan keltirilgan).

⁵ Migren — bu kuchli bosh og'rig'i bilan kechadigan va ko'pincha boshning bir tomonida pulsatsiyalanuvchi og'riq bilan namoyon bo'ladigan nevrologik kasallik.

Freydning g'oyalari ilmiy maqolalar, kitoblar va ilmiy konferensiyalarda taqdim etilgan ma'ruzalar orqali tanila boshlagach, unga yangi psixoanaliz tizimidan o'rganish uchun haftada bir marta uchrashadigan bir guruh shogirdlar to'plandi. Bir yozuvchi bu guruhnini ikkinchi darajali "nevrozga moyil odamlarning to'plami" deb atagan (Gardner, 1993, 51-betdan keltirilgan). Freydning qizi Anna esa ilk shogirdlarni "noan'anaviy shaxslar, hamma narsaga shubxalanuvchilar, bilimga qo'yilgan chekllovlardan norozi bo'lganlar; shuningdek, ularning orasida o'zлari nevrotik azoblarni boshdan kechirgan g'aroyib odamlar va hayolparastlar ham bor edi," deb tasvirlagan (Coles, 1998, 144-betdan keltirilgan).

Shogirdlar orasida Karl Yung va Alfred Adler ham bo'lib, ular keyinchalik Freyddan ajralib, o'z nazariyalarini yaratganlar. Freyd ularni o'z yo'liga xiyonat qilganlikda ayblab, ularni hech qachon kechirmagan. Oila davrasidagi kechki ovqatda, u shogirdlarining sadoqatsizligidan shikoyat qilganida, xolasi Freydgaga odamlarning ichki tuyg'ularini va psixologik ehtiyojlarini to'liq anglay olmasligini aytib, uni odamlarni tushunishdagi cheklanganligida ayblaydi. (Hilgard, 1987, 641-betdan keltirilgan).

Freyd o'z uyida intizomli va tartibli hayot kechirar edi. Kelinining aytishicha, "Freydlar Vena shahrida tushlikni soat birda yeyishardi va urush holatida bo'lsa ham, vaqtida yetib kelishingiz kerak edi. Aks holda ovqat yeyish imkoniyatidan mahrum bo'lar edingiz" (Berman, 2008, 561-betdan keltirilgan).

1909 yilda Freyd Amerika psixologik jamoasidan rasmiy e'tirof oldi. Uni Massachusets shtatining Vuster shahridagi Klark Universitetida bir qator ma'ruzalar o'qish va faxriy doktorlik darajasini olish uchun taklif qilishdi. Ushbu hurmat uchun minnatdor bo'lgan bo'lsa-da, Freyd AQShni yoqtirmadi va bu yerdagi noformal atmosferadan, yomon taomlar va hammomlarning kamligidan shikoyat qildi. U safaridan oldin ko'p yillar davomida oshqozon-ichak muammolaridan aziyat chekkan bo'lsa-da, "Amerika uning hazm qilish faoliyatini buzganini" aytib ayblagan (Prochnik, 2006, 35-betdan keltirilgan).

Freydning psixoanaliz tizimi AQShda iliq kutib olindi. Uning tashrifidan ikki yil o'tib, amerikalik izdoshlari Amerika Psixoanalitik Assotsiatsiyasini va Nyu-York Psixoanalitik Jamiyatini tashkil etishdi.

Keyingi yillarda Boston, Chikago va Vashington shaharlarida ham psixoanalitik jamiyatlar tashkil qilindi.

1920 yilga kelib, Freydning Amerikaga tashrifidan atigi 11 yil o'tgan bo'lsa-da, AQShda uning ishiga bag'ishlangan 200 dan ortiq kitob chop etildi (Abma, 2004). "Time", "Ladies' Home Journal" va "The New Republic" kabi yetakchi Amerika jurnallari Freyd haqida maqolalar nashr qilishdi. Dr. Benjamin Spokning bir necha avlod amerikalik bolalarni tarbiyalashga katta ta'sir ko'rsatgan bolalar parvarishi haqidagi mashhur kitoblari Freydning ta'limotlariga asoslangan edi. Freydning tushlar haqidagi ishlari hatto "O'tgan tun qanday tush ko'rganingni aytma - men Freydn o'qiyapman" qatorini o'z ichiga olgan mashhur qo'shiqni ham ilhomlantirdi (Fancher, 2000, 1026-betdan keltirilgan). Freyd aytganidek, Amerika uning salomatligini yomonlashtirgan bo'lsa ham, unga butun dunyo bo'yab shuhrat keltirdi.

1920-1930-yillarda Freyd o'z muvaffaqiyatining eng yuqori cho'qqisiga yetdi, ammo ayni vaqtida sog'ligi jiddiy yomonlasha boshladи. 1923 yildan o'limiga qadar, ya'ni 16 yil davomida, u og'zidagi saraton kasalligi sababli 33 ta jarrohlik operatsiyasini boshdan kechirdi. Bu ehtimol uning kuniga 20 dona sigara chekishidan kelib chiqqan edi. Jarrohlik natijasida uning tanglayi va yuqori jag'ining bir qismi olib tashlandi va u doimiy og'riqni boshdan kechirdi, ammo dori-darmon qabul qilishdan bosh tortdi. Shuningdek, u rentgen va radiy terapiyasini oldi va ba'zi shifokorlar saratonning o'sishini to'xtatadi deb o'ylagan vasektomiya⁶ operatsiyasini (erkaklar uchun mo'ljallangan doimiy kontratsepsiya usuli bo'lib, unda urug' chiqaruvchi naylar kesiladi yoki bog'lanadi) ham boshdan o'tkazdi.

1933 yilda Germaniyada natsistlar hokimiyatga kelganida, ular Freydga nisbatan o'z munosabatlarini uning kitoblarini omma oldida yoqish orqali namoyon etishdi. Bu amallar "davlat dushmanlari" deb hisoblangan boshqa taniqli shaxslarning, jumladan fizik Albert Eynshteyn va yozuvchi Ernest Xemingueyning kitoblariga nisbatan ham qo'llanildi. Freyd bu haqda "Biz qanday rivojlanib bormoqdamiz. O'rta asrlarda ular meni gulganda yoqqan bo'lar edi; hozir esa kitoblarimni yoqish bilan kifoyalanishmoqda," deb yozgan edi (Jones, 1957, 182-betdan keltirilgan).

1938 yilda natsistlar Avstriyani egallab olishdi, lekin do'stalarining iltimoslariga qaramay, Freyd Venani tark etishdan bosh tortdi. Bir necha bor natsistlar uning uyiga bostirib kirishdi. Faqat uning qizi Anna hibsga olinganida (va keyinchalik qo'yib yuborilganida) Freyd Londonga ketishga rozi bo'ldi. Uning to'rt nafar singlisi natsistlarning kontslagerlarida vafot etdi.

Freydning sog'ligi yanada yomonlashdi, ammo u aqliy jihatdan hushyor bo'lib qoldi va hayotining so'nggi kunigacha deyarli ishslashda davom etdi. 1939 yil sentyabr oyining oxirida u shifokori Maks Shurga shunday dedi: "Buyog'i endi faqat qiynoqlardan iborat va hech qanday ma'no yo'q" (Shur, 1972, 529-betdan keltirilgan). Uning shifokori uni keraksiz azobga solmaslikka va'da bergen edi. U 24 soat ichida uchta morfin dorisini yubordi, har bir doza tinchlantirish uchun zarur bo'lgan miqdordan oshar edi va shu tariqa Freydning uzoq yillik azoblariga yakun yasadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Bakalar, N. (2011, October 11). First mention: Sigmund Freud, 1909. New York Times.
2. Krüll, M. (1986). Freud and his father. New York: Norton.
3. Freud, S. (1954). The origins of psychoanalysis: Letters to Wilhelm Fliess, drafts and notes: 1887–1902. M. Bonaparte, A. Freud, & E. Kris (Eds.). New York: Basic Books.
4. Elms, A. C. (1994). Uncovering lives: The uneasy alliance of biography and psychology. New York: Oxford University Press.
5. Roazen, P. (1993). Meeting Freud's family. Amherst: University of Massachusetts Press.
6. Kandel, E. (2012). The age of insight: The quest to understand the unconscious in art, mind, and brain, from Vienna 1900 to the present. New York: Random House.
7. Gay, P. (1988). Freud: A life for our time. New York: Norton.
8. Gardner, H. (1993). Creating minds. New York: Basic Books.
9. Coles, R. (1998). Psychoanalysis: The American experience. In M. S. Roth (Ed.), Conflict and culture (pp. 140–151). New York: Knopf.
10. Hilgard, E. (1987). Psychology in America: A historical survey. San Diego: Harcourt Brace Jovanovich.
11. Prochnik, G. (2006). Putnam camp: Sigmund Freud, James Jackson Putnam, and the purpose of American psychology. New York: Other Press.
12. Abma, R. (2004). Madness and mental health. In J. Janz & P. Van Drunnen (Eds.), A social history of psychology (pp. 93–128). Malden, MA: Blackwell.
13. Fancher, R. (2000). Snapshots of Freud in America, 1899–1999. American Psychologist, 55, 1025–1028.
14. Jones, E. (1953, 1955, 1957). The life and work of Sigmund Freud (3 vols.). New York: Basic Books.

15. Lutfullaeva, N. (2022). Ўзбекистонда тадбиркорликни ривожлантириш асосида камбағаллик ва ишсизлик даражасини камайтириш масалалари мавзусидаги илмий-амалий конференция материаллари тўплами.—Т.: ТДИУ, 2021.—346 б.: Ishsiz yoshlar ruhiyatidagi psixo-emotsional buzilishlar, ularning oqibatlari. *Архив научных исследований*, 2(1).
16. Arapbaeva, D. K. (2024). The Role of Individual-Typological Characteristics In The Process of Family Adaptation of Young Brides. *SPAST Reports*, 1(1).
17. Yuldasheva, N. S. K. (2021). TRADITIONS AND CUSTOMS EFFECT ON COGNITIVE AND BEHAVIORAL DEVELOPMENT OF CHILD. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, 2(06), 68-72.
18. Xolmatov, M. (2024). SOCIO-PSYCHOLOGICAL CRITERIA OF THE FORMATION OF RELIGIOUS TOLERANCE IN STUDENTS. *Nordic_Press*, 2(0002).
19. Shodiboev, S. (2024). PSIXOLOGIYADA SHAXS TUSHUNCHASI. *Nordic_Press*, 3(0003).
20. Razzoqova, M. (2024). SPEECH DEVELOPMENT TECHNOLOGIES FOR PRESCHOOL CHILDREN IN THEIR ENVIRONMENT: preschool. *Nordic_Press*, 1(0001).
21. Kurbonova, B., & Ahmedova, N. (2022). THE CONCEPT OF ARTISTIC THINKING IN THE FINE ARTS. *International Journal of Early Childhood Special Education*, 14(6).
22. Egamberdiyeva, M. (2024). MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARINING TURLI YOSH GURUHLARIDA QAYTA HIKOYA QILISHGA O 'RGATISH ORQALI NUTQ, MULOQOT KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH USULLARI. *Nordic_Press*, 3(0003).
23. Berdiyorova, N. (2024). MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA MUSIQA TO'GARAKLARINI TASHKIL ETISHGA INNOVATSION YONDASHUV. *Nordic_Press*, 3(0003).
24. Khasanova, M. (2024). THE ROLE OF ETHNOMUSICOLOGY IN PRESCHOOL EDUCATION: CHALLENGES AND SOLUTIONS IN MUSICOLOGY. *Nordic_Press*, 5(0005).